

Sud mustaqilligini ta’minlashning ayrim masalalari

Sud hokimiyatining mustaqilligi odil sudlovga erishishning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Ushbu organning mustaqilligi milliy qonunchilik va xalqaro hujjatlarda belgilab qo‘yilgan.



“Sudlar to‘g‘risida”gi qonunning 1-moddasida sud hokimiyatining qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyatlardan, siyosiy partiyalardan, boshqa jamoat birlashmalaridan mustaqil holda ish yuritishi belgilangan.

Sud hokimiyatining mustaqilligi ahamiyatini tadqiq etish, o‘rganish huquqshunoslik fani uchun dolzarb vazifa hisoblanadi.

O‘zbekiston sud tizimi tarixida ilk bor sudyalar hamjamiyatining konstitutsiyaviy organi – O‘zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi tashkil etildi. Kengash faoliyatini davlat organlari va boshqa tashkilotlar, shuningdek, mansabdor shaxslardan mustaqil ravishda amalga oshirishi, kengash faoliyatiga aralashishga yo‘l qo‘yilmasligi va bu qonunda nazarda tutilgan javobgarlikka sabab bo‘lishi belgilab qo‘yildi.

Sudyalar oliy kengashining asosiy vazifalaridan biri “sudyalar daxlsizligi buzilishining va ularning odil sudlovni amalga oshirish borasidagi faoliyatiga aralashishning oldini olish bo‘yicha chora-tadbirlar ko‘rish”dir.

Mazkur konstitutsion organ sudyalar daxlsizligi buzilishining va ularning odil sudlovni amalga oshirish borasidagi faoliyatiga aralashishning oldini olish bo‘yicha chora-tadbirlar ko‘radi.

Lekin sud tizimining chinakam mustaqilligini ta’minlash, sudga hurmatsizlik uchun javobgarlikni kuchaytirish bilan bog‘liq ba’zi bir kamchiliklar borligidan ham ko‘z yummaslik lozim.

Ba’zan internet saytlari va ijtimoiy tarmoqlarda sudyalarga nisbatan hokimiyat va ichki ishlar organlari mutasaddilarining munosabati jiddiy muhokamalarga sabab bo‘ladi. Xususan, 2020-yil 12-iyul kuni Surxondaryo viloyatining Jarqo‘rg‘on tumanida tuman hokimi, ichki ishlar bo‘limi vakillari sud tizimi vakillariga nisbatan “tajovuzkorona, zo‘ravonlik” bilan munosabatda bo‘ladi. Vaholanki, “Sudlar to‘g‘risida”gi qonunning 68-moddasida “Davlat organlari va boshqa organlar, korxonalar, muassasalar va tashkilotlar, mansabdor shaxslar, fuqarolar sudyalarni hurmat qilishi va ularning mustaqilligiga rioya etishi shart. Sudyaga nisbatan hurmatsizlik qilish, shuningdek uni ochiqdan-ochiq mensimaslikdan dalolat beruvchi xatti-harakatlar qilish qonunga binoan javobgarlikka sabab bo‘ladi” deb belgilangan.

2020-yil 14-iyul kuni uza.uz saytida “Sudyalar daxlsizligiga daxl qilish qonunni rad etish emasmi?” sarlavhali maqola chop etildi. Unda Guliston shahriga kirishdagi blok-postlardan birida sudyaga nisbatan qo‘pollik qilingani, uni shaxsiy avtomashinasidan tushirib, kuch ishlatilgani yozilgan edi. “Sudlar to‘g‘risida”gi qonunning 70-moddasi oltinchi qismida sudyaning turar joyiga yoki xizmat xonasiga, foydalanadigan transportiga kirish, ularni ko‘zdan kechirish, ularda tintuv o‘tkazish yoki ulardan ashyoni olish, telefondagi so‘zlashuvlarini eshitish, sudyani shaxsan ko‘zdan kechirish va uni shaxsiy tintuv qilish, shuningdek, uning xat-xabarlarini, unga tegishli ashyolar va hujjatlarni ko‘zdan kechirish, olib qo‘yish yoki olishga faqat Qoraqalpog‘iston Respublikasi prokurorining, viloyat, Toshkent shahar prokurorining, O‘zbekiston Respublikasi harbiy prokurorining ruxsati yoki sudning qarori bilan yo‘l qo‘yilishi belgilangan.

Shuningdek, sudga hurmatsizlik qilgani uchun O‘zbekiston Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksining 180-moddasida javobgarlik belgilangan. Unga ko‘ra, guvoh, jabrlanuvchi, da’vogar, javobgar, ishda qatnashuvchi boshqa shaxslarning sudga kelishdan qasddan bo‘yin tovlashi yoki mazkur shaxslarning va boshqa fuqarolarning raislik qiluvchi farmoyishiga bo‘ysunmasligi yoxud sud majlisi paytida tartibni buzishi bazaviy hisoblash miqdorining bir baravaridan uch baravarigacha jarima solishga sabab bo‘ladi .

Qonunchiligimizda bunday holatlarga nisbatan jinoiy javobgarlik belgilanmagan. Bundan tashqari, sud (sudya)ning qonuniy talablarini bajarmaganlik va ularning qonuniy faoliyatiga qar-

shilik koʻrsatganlik uchun javobgarlik nazarda tutilmagan.

Lekin MDH mamlakatlari va rivojlangan xorijiy mamlakatlar qonunchiligida sudga hurmatsizlik qilgani uchun ma'muriy hamda jinoiy javobgarlik belgilangan.

Jumladan, **Rossiya Federatsiyasi** Ma'muriy huquqbuzarlik toʻgʻrisidagi kodeksining 13.26-moddasida pochta aloqasi operatori tomonidan sud xabarnomalarini manzilga yetkazib berish muddati va tartibi buzilishi, shu jumladan sudning xabarnomasi oʻz vaqtida yetkazib berilgani yoki yetkazib berishning mumkin emasligini oʻz vaqtida xabar qilmasligi uchun ham ma'muriy javobgarlik belgilangan.

20.25-moddasida ushbu kodeksda nazarda tutilgan muddatda ma'muriy jarima toʻlamaganlik jarimaning ikki baravari miqdorida, lekin ming rubldan kam boʻlmagan miqdorda jarima solishga yoki 15 sutka ma'muriy qamoqqa olishga yoki 50 soatgacha majburiy mehnatga jalb qilish bilan jazolanishi nazarda tutilgan.

Rossiya Jinoyat kodeksining 297-moddasida sud ishtirokchilarini haqorat qilishda ifodalangan sudga nisbatan hurmatsizlik belgilangan.

Shu moddaning 2-qismida sudyani, sudni yoki odil sudlovni amalga oshirishda ishtirok etayotgan boshqa shaxsni haqorat qilishda aynan oʻsha qilmish takroran sodir etilishi uchun javobgarlik belgilangan.

Rossiyaning sud ishlarini yuritish toʻgʻrisidagi kodeksining 122-moddasida sud ishida ishtirok etayotgan shaxslarga va sud zalida boʻlgan boshqa shaxslarga hurmatsizlik qilgani uchun sud jarima tayinlashga haqli ekanligi, sudga hurmatsizlik uchun sud jarimasi agar sodir etilgan xatti-harakatlar jinoiy javobgarlikka olib kelmasa tayinlanishi nazarda tutilgan.

Qozogʻiston Respublikasi qonunchiligida ma'muriy ham jinoiy javobgarlik belgilangan. Sudga hurmatsizlik uchun ma'muriy javobgarlik Qozogʻiston Ma'muriy huquqbuzarliklar toʻgʻrisidagi kodeksining 653-moddasida nazarda tutilgan. Sudga hurmatsizlik, sud protsessi ishtirokchilari va boshqa shaxslarning uzrli sabablarsiz sud majlisiga kelmasligi, agar ular yoʻqligida ishni koʻrib chiqish imkonsiz boʻlsa, sud majlisida raislik qiluvchining buyruqlariga boʻysunmaslik, sudda tartibga rioya qilmaslik, shuningdek, sudga va sudyaga nisbatan hurmatsizlikni aniq koʻrsatadigan boshqa harakatlar (harakatsizliklar) ogohlantirish, jarima yoki ma'muriy qamoq jazosi tayinlanishiga sabab boʻladi.

Sudga hurmatsizlik toʻgʻrisidagi ishlarda ma'muriy huquqbuzarlik obyekti odil sudlovni va sud hokimiyati vakolatlarini oʻz vaqtida va sifatli amalga oshirishga qaratilgan sudning toʻgʻri faoliyati hisoblanadi.

Qozogʻiston Jinoyat kodeksining 410-moddasida sudga hurmatsizlik qilgani uchun jinoiy javobgarlik belgilangan boʻlib, sud protsessi ishtirokchilarini yoki sudyani, xalq maslahatchilarini haqorat qilishda ifodalangan hollarda yuzaga keladi.

Ushbu moddaning maqsadi protsess ishtirokchilarining sha'ni va qadr-qimmatini himoya qilishga qaratilgan boʻlib, koʻp jihatdan sud hokimiyatining nufuziga bogʻliq.

Ushbu toifadagi jinoyatlar sud hokimiyatining nufuziga, shuningdek protsess ishtirokchilariga zarar yetkazadi. Shuning uchun haqorat ommaviy shaklda qilinganmi yoki boshqa shaxslar yoʻqligida qilinganmi va bu haqorat qaysi shaklda ifodalangani muhim emas.

Ukrainaning Ma'muriy huquqbuzarliklar toʻgʻrisidagi kodeksining 185^3-moddasi dispozitsiyasiga binoan sudga hurmatsizlik quyidagi harakatlarni oʻz ichiga oladi: sudga kelishdan boʻyin tovlash, raislik etuvchining buyrugʻiga boʻysunmaslik, sud majlisida tartibni buzish, sudga yoki sudda oʻrnatilgan qoidalarga aniq mensimaslikni koʻrsatadigan harakatlar qilish kabilar.

Mazkur modda sanksiyasida jarima va 15 sutkagacha ma'muriy qamoq jazosi nazarda tutilgan.

Bundan tashqari, Ukraina Konstitutsiyasining 129-moddasida sud va sudyaga nisbatan hurmatsizlik uchun aybdor shaxslar qonuniy javobgarlikka tortilishi aniq koʻrsatilgan. Ushbu me'yor Ukrainaning "Sud tizimi va sudyalarning maqomi toʻgʻrisida"gi qonunining 50-moddasi talablariga toʻliq mos keladi, uning mazmuniga koʻra sudga yoki sudyaga nisbatan hurmatsizlik qilgan shaxslar qonun bilan javobgarlikka tortiladi.

Ozarbayjon Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi faoliyati, shuningdek sudyalarning maqomi "Konstitutsiyaviy sud toʻgʻrisida"gi qonuni bilan belgilanadi.

Kassatsiya va apellyatsiya sudlarining barcha qarorlari ular qabul qilinganidan keyin bir oydan

kechiktirmay e'lon qilinadi va elektron ommaviy axborot vositalari orqali tarqatiladi. Ushbu qarorlar bilan bir qatorda quyi sudlarning bekor qilingan yoki o‘zgartirilgan qarorlari ham e'lon qilinishi kerak.

Ozarbayjon qonunlarida belgilangan tartibda yuridik kuchga ega bo‘lgan ushbu qarorlar barcha jismoniy va yuridik shaxslar tomonidan Ozarbayjon hududida majburiy, o‘z vaqtida va aniq bajarilishi kerak.

Sudning qonuniy kuchga ega bo‘lgan qarorlarini bajarmaslik Ozarbayjon qonunlarida nazarda tutilgan javobgarlikka sabab bo‘ladi.

Ozarbayjon sud hokimiyatining ramzlari Ozarbayjon davlat bayrog‘i, gerbi va rasmiy odil sudlov gerblaridan iborat.

Sudyalar ushbu qonunda belgilangan vakolatlarga ega. Sudyalar mustaqillik, o‘zgarmaslik, daxlsizlik huquqiga, shaxsiy manfaatlarini himoya qiluvchi tashkilotlarga birlashish huquqiga ega, shuningdek davlat ularning xavfsizligi, mulkiy va ijtimoiy himoyasini ta’minlaydi.

Sudyalar quyidagi huquqlarga ega:

- mansabdorlar jismoniy va yuridik shaxslardan sudyalar to‘g‘risidagi qonun tomonidan yuklangan vazifalarni bajarish bilan bog‘liq buyruqlari bajarilishini talab qilish;
- davlat organlariga, boshqa tashkilotlarga va mansabdorlarga qonun buzilishlarining sabablarini bartaraf etish bo‘yicha taqdimnomalarni yuborish;
- mansabdorlardan va odil sudlovni amalga oshirish bilan bog‘liq boshqa shaxslardan ma’lumot olish;
- uni intizomiy javobgarlikka tortish to‘g‘risida shikoyat qilish;
- egallab turgan lavozimidan ixtiyoriy ravishda bo‘shatish to‘g‘risida ariza yuborish.

Davlat organlari, muassasalar, korxonalar va tashkilotlar sudyalarning odil sudlovni amalga oshirish bilan bog‘liq talablari va buyruqlarini bajarishlari shart. Ushbu talab va buyruqlarni bajarmaslik qonunda belgilangan javobgarlikka sabab bo‘ladi.

Buyuk Britaniyada esa sudga nisbatan har qanday hurmatsizlik uchun ikki yillik qamoq jazosi belgilangan.

Amerika Qo‘shma Shtatlari sudyalari sud ishtirokchilariga va nazariy jihatdan har qanday fuqaroga nisbatan sudga hurmatsizlik ayblovini qo‘yishga haqli. Odatda bu sud zalida qasamyod va tajovuzkor xatti-harakatlar, shuningdek sud buyruqlarini e'tiborsiz qoldirishga urinishlar bilan yakunlanadi.

AQSH federal qonuni esa 18 oygacha ozodlikdan mahrum qilishni nazarda tutadi.

AQSHda odil sudlovni amalga oshirishga to‘sqinlik qilish, xususan, piketlar va namoyishlar o‘tkazish kabi to‘siq turlari uchun jinoiy javobgarlik ko‘zda tutilgan.

Masalan, odil sudlovni amalga oshirishga to‘sqinlik qilish yoki to‘sqinlik qilish maqsadida namoyish o‘tkazsa 5000 AQSH dollarigacha jarima yoki 1 yilgacha ozodlikdan mahrum qilish yoki ikkalasi bilan jazolanadi.

Xalqaro tajribadan kelib chiqqan holda sud tizimining chinakam mustaqilligini ta’minlash, sudga hurmatsizlik uchun javobgarlikni kuchaytirish maqsadida quyidagi taklif va mulohazalarni bildiramiz: milliy amaliyot va ilg‘or xalqaro tajriba asosida qonunchilikni takomillashtirish lozim.

Bunda sudga nisbatan hurmatsizlik uchun jinoiy javobgarlik masalasi kiritilishi maqsadga muvofiq, chunonchi:

- sud hujjatlarining o‘z vaqtida va qat’iy bajarilishi odil sudlovning muhim kafolati ekanligini inobatga olib, sud qarorlarini ijro etishning samaradorligi va sifatini oshirish bo‘yicha aniq mexanizmlarni ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish kerak;
- sud hujjatlarining ijrosini ta’minlovchi organlarning javobgarligi va mas'uliyatini oshirishga qaratilgan yangi normalar qonunchilikka singdirilishi lozim;
- sud qarorlarini o‘z vaqtida va tezkor ijro qilish maqsadida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanish zarur.

Baxtiyor QILICHOV,
Qashqadaryo viloyat ma’muriy sudining sudyasi